

## ZAMONAVIY KASBLARNI O'RGATISHDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALARNING O'RNINI

*NamDU talabasi*

*Namangan viloyati Kosonsoy tuman  
3-son KHM Informatika fani o'qituvchisi*

**Qirg'izova Barno Odiljonovna**

**Annotatsiya:** *Uzluksiz ta'lim jarayonida demokratik tamoyillarning amal qilishi o'quvchilarning aql-idrokiga ishonch, ularning mustakil fikrlashiga imkon yaratish sinf va sinfdan tashqari faoliyatidagi ijodkorligi va tashabbuskorligini rag'batlantirish tarzida namoyon bo'ladi.*

**Kalit so'zlar :** *Ta'lim, uzluksiz, innovatsion , texnologiya, texnik, real, interfaol metod, o'qitish, globallashuv davri, texnika asri.*

Barchamizga ma'lumki, XXI asr – globallashuv davri, texnika asri deyiladi.. Bugungi kunda fan va texnika jadal suratda rivojlanib bormoqda, bu esa yangi texnologiyalardan foydalanib dars o'tishni taqozo etadi. Kelajagimiz bo'lgan yoshlarni yuksak madaniyatli, o'tkir bilimni qilib tarbiyalashda har bir pedagog xodim o'zini mas'ul shaxs ekanligini bilgan holda, dars samaradorligini oshirib borishi, yangi texnologiyalardan unumli foydalanishi dolzarb masala hisoblanadi.

Respublikamiz Birinchi Prezidenti I.A.Karimov «Bilimdon va ma'naviy yetuk bo'lgan, zamonaviy texnika va texnologiyalarni egallagan hamda boshqara oladigan malakali mutaxassislarni tarbiyalab yetishtirish bunday islohotlarning asosiy maqsadi hisoblanadi. Chuqur islohotlarni amalga oshirish, bozor iqtisodiyotiga o'tish, birinchi navbatda kadrlar potensialiga, ularning kasb jihatidan tayyorgarligiga bog'lik, bo'ladi», deb ta'kidlagan edilar. Mustaqil rivojlanish yo'lidan borayotgan Respublikamizda yangi iqtisodiy sharoitlar ro'yobga keldiki, bu xalq xo'jaligining barcha sohalarida, hususan, ta'lim tizimida ham qator islohotlarni amalga oshirishni taqozo etadi.

Fan va texnika taraqqiyotining jadal kechayotgani, kompyuter texnikasining keng qo'llanilayotganligi, o'quvchilarga berilishi lozim bo'lgan bilimlar ko'lamining tobora oshib borayotganligi, ta'limni tubdan yaxshilashni, fanlar bo'yicha milliy va mahalliy sharoitlarga mos keladigan hamda malakali mutaxassislarni tayyorlash imkonini beradigan dastur va darsliklar, ta'limning zamonaviy metodlarini ishlab chiqishni talab qiladi. Ta'lim jarayonida ilg'or pedagogik texnologiyalarni faol qo'llash, ta'lim samaradorligini oshirish, tahlil qilish va amaliyotga joriy etish bugungi kunning muhim vazifalaridan biridir.

O'quvchilarning fikr doirasi, ongi, dunyoqarashlarini o'stirish, ularni erkin tinglovchidan erkin ishtirokchiga aylantirmoq nihoyatda muhimdir. O'qituvchi darsda boshqaruvchi o'quvchilar esa, ishtirokchiga aylanmog'i lozim. Ana shu vazifani uddalashda innovatsion faoliyat ustunligi ko'p qirrali samara keltiradi.

Pedagogikada ya'ni ta'lim berish jarayonida o'qitish texnologiyalari bilan birga ta'limiy texnologiyalar xam o'rin olgan. Ta'limiy texnologiyalar mazmun-axborot aspektini bildirsa, o'qitish texnologiyasi jarayonga aloqador deb xisoblanadi, ya'ni ular orasida xali xam aniq farqlar belgilanmagan.

Pedagogik texnologiya talabalarning tayyorgarlik darajasiga, ularning axborotlar bilan tanishganlik va amaliy tayyorgarligiga moslangan bo'lishi lozim. Pedagogik texnologiyalardan foydalanish ta'lim texnologiyalarining ilmiy asoslarini ishlabchiqish, pedagogik innovatsiyalar, mualliflik maktablari va yangi texnologiyalarni eksperiment kilish bilan bog'liqdir. Bu tajribalar muayyan tizimni ishlab chiqish va umumlashtirishni talab etadi. Shu innovatsion texnologiyalar asosida sekin asta pedagogikaning ya'ni o'qitish tizimining ham yangidan yangi turlari vujudga kelmoqda. Masalan ulardan biri hamkorlik pedagogikasi.

Hamkorlik pedagogikasi XX asrning 20-yillarida rivojlana boshladi va ta'limdagi ko'pgina innovatsion jarayonlarni xayotga chorladi. Bu texnologiya negizida tanikli rus va chet el pedogoglarining tajribasi yotadi. Ular K.D.Ushinskiy, N.P.Pirogov, L.N.Tolstoy, J.J. Russo, Ya.Korchak, K.Rodjers, E.Bern, S.T.Katskiy, V.A.Suxomlinskiy va boshqalardir. Hamkorlik pedagogikasi 4ta asosiy yo'nalish bo'yicha amalga oshiriladi:

- shaxsga inson, shaxs sifatida yondashuv;
- dialektik faollashtiruvchi va rivojlantiruvchi majmua;
- tarbiya kontseptsiyasi;
- atrof-muhitni ta'lim-tarbiyaga moslash

Ko'pgina mamlakatlar o'qitishda texnologik yondashuvdan foydalanib, O'quvchilar o'zlashtirishini oshirishda sezilarli muvaffaqiyatga erishdilar. Masalan, Janubiy Koreyada pedogogik texnologiya bo'yicha sinov-tarjiba tarzida O'qiyotgan 50 ming bola 15 foiz an'anaviy o'qitishda faqat eng yaxshi erishadigan natijalar qo'lga kiritilgan. Bir qator barcha mamlakatlarda o'tkazilgan tajribalar o'qitishning bu tizimini qo'llash o'rtacha o'quvchiga an'anaviy o'qitishda 20-25 foiz o'quvchilar erishadigan natijadan yuqoriroq natijaga erishish imkonini berishini ko'rsatdi. Pedogogik texnologiyani o'zlashtirib olgan moxir pedogoglar uchun mazkur usulning an'anaviy usulga ko'ra samaraliroq ekanligi ma'lum bo'ldi. Bu esa maktab pedogoglari, kasb-hunar va oliy maktab professor o'qituvchilari uchun kadrlar tayyorlash sifatini oshirishda pedogogik texnologiyani o'zlashtirish va amalda qo'llash zarurligini bildiradi. «Kadrlarni tayyorlash milliy dasturida» Yangi pedogogik va axborot texnologiyalardan foydalanib, talabalarni o'qitishni jadallashtirish ko'zda tutilgan.

Innovatsion texnologiyalardan dars jarayonida foydalanishning o'ziga xosligi shundaki, ular o'qituvchi va o'quvchilarning birgalikdagi faoliyati orqali amalga oshiriladi. O'qitish jarayoni o'qituvchi hamda o'quvchilar faoliyatini o'z ichiga oladi. O'qituvchining faoliyati o'quv materialini bayon qilish, o'quvchilarning fanga bo'lgan qiziqishini orttirish, fikrini teranlashtirish va e'tiqodini shakllantirish, o'quvchilarning mustaqil mashg'ulotlariga rahbarlik qilish, ularning bilim, ko'nikma va malakalarini

tekshirish hamda baholashdan iborat. O'z ishiga ixlos bilan qaragan o'qituvchida chinakkam ehtiros bo'ladi.

Xulosa qilib aytganda, zamon rivojlanishi bilan hayotning barcha sohalarida, xususan pedagogika ya'ni o'qitish va ta'lim jarayonida ham ko'pgina yangiliklar vujudga keladi. Va har bir qilingan islohot kelajakni yanada muvaffaqiyatli yanada ishonchli qilib ta'minlashga yordam beradi. Ayniqsa o'qitish jarayonidagi islohotlar, innovatsion texnologiyalar yosh avlodni tezkorlik bilan samarali bilim olishlarini ta'minlab beradi va bu ko'pgina davlatlar xususan mamlakatimiz O'zbekiston tajribasida ham o'z isbotini topib kelmoqda.

### REFERENCES:

1. Azizxujayeva N.N. Pedagogik texnologiya va pedagogik maxorat. T.:TDPU, 2003.
2. Ishmuxamedov R.J. Innovasion texnologiyalar yordamida ta'lim samaradorligini oshirish yullari. T.: TDPU, 2004.
3. Yunusovna, S. Z. The Role of the Conversational Implicative in Linguopragmatics on the Basis of Formal and Informal Letters. TDO'TAU, 2022
4. Ochilova G.O., Musaxanova G.O. Pedagogik maxorat. Toshkent. TDIU, 2007 yil
5. www. Inter- pedagogika. Ru
7. Nazirovich, A. U. (2022). TURIZMGA OID ATAMALARNING LINGVOKULTUROLOGIK XUSUSIYATLARI. Conferencea, 256-258.
8. qizi Tojiboyeva, M. S., & Pakirdinova, S. A. (2022). KONSEPT-TIL VA MADANIYAT OLAM MANZARASINI IFODALOVCHI VOSITA. Educational Research in Universal Sciences, 1(6), 290-293.
9. Tojiboyeva, M. S. Q. (2022). SEMANTIC DIVISION OF TOURISM TERMINOLOGY. Scientific progress, 3(6), 116-119.
10. qizi Tojiboyeva, M. S., & Kuchqorova, M. Y. (2023). PHRASEOLOGICAL UNITS DENOTING THE CONCEPT OF WISDOM. GOLDEN BRAIN, 1(6), 52-55.
11. Tojiboyeva, M. S. Q. (2022). SEMANTIC DIVISION OF TOURISM TERMINOLOGY. Scientific progress, 3(6), 116-119.